

**MINTAQALARDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH
RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH. MINTAQALARDA
ZIYORAT TURIZMI MARKAZLARI VA ULARNI ULARNI
RIVOJLANTIRISH RESURSLARI**

G'ofurov Shukurjon

*FarDu iqtisodiyot fakulteti Mehmonxona xojalikgini tashlik etish va boshqarish
yo'nalishi 21.112 guruh talabasi*

ARTICLE INFO

ABSTRACT:

ARTICLE HISTORY:

Received: 17.04.2025

Revised: 18.04.2025

Accepted: 19.04.2025

KEYWORDS:

*ekologik turizmi,
ziyoratgohlar, ziyorat
turizmi, tarixiy
obidalar, tabiat
ekoturizmi.*

Ekologik turizm yoki ekoturizm — tabiatni muhofaza qilishni targ'ib qiluvchi, atrof-muhitga "yumshoq" ta'sir ko'rsatadigan, mahalliy aholining faol ijtimoiy-iqtisodiy ishtirokini ta'minlaydigan tabiat va madaniy diqqatga sazovor joylarni o'rganish va zavqlanish uchun buzilmagan tabiiy hududlarga nisbatan atrof-muhitga mas'uliyat bilan sayohat qilish, ushbu faoliyatdan foyda olish tushuniladi. Maqolada ekologik turizm va ziyorat turizmi markazlari va ularni takomillashtirish jarayonlari haqida so'z yuritiladi.

Kirish. Ekoturizmning dastlabki misollaridan biri o'laroq AQSh, Kanada, Avstraliya kabi mamlakatlarda milliy bog'lar va qo'riqlanadigan hududlarning tashkil etilishi bilan bog'liqdir. 1960–1970-yillarda asosan tabiatni muhofaza qiluvchilar, ekologlar va rivojlanayotgan mamlakatlardagi mahalliy hamjamiyat tomonidan boshqariladigan zamonaviy ekoturizm konsepsiyasi shakllana boshladi. Ushbu dastlabki ekoturizm tashabbuslari tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ta'limni rag'batlantirish bilan birga mahalliy jamoalar uchun barqaror iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga intildi. Keyingi bosqichlarda 1980 va 1990-yillarda

esa ekoturizm mashhurligida sezilarli o'sish kuzatildi. Bu davr, shuningdek, tijorat sohasi sifatida ekoturizmning rivojlanishiga guvoh bo'ldi, sayyohlik kompaniyalari va turoperatorlar tabiatga asoslangan keng ko'lamli tajribalar va ekologik toza turar joylarni (mehmonxonalar) taklif qilisha boshladi.

So'nggi yillarda ekoturizm rivojlanishda va kengayishda davom etib, mas'uliyatli sayohat amaliyotlarini targ'ib qilish, jamoatchilik asosidagi turizm tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, tabiat, madaniyat va barqarorlikning o'zaro bog'liqligini chuqurroq tushunishga qaratilgan. Bugungi kunda tabiat ekoturizmi yovvoyi tabiatni kuzatish, qushlarni kuzatish, tabiatni suratga olish, piyoda sayr qilish, baydarkada sayr qilish va madaniy suvga cho'milish tajribalarini o'z ichiga olgan keng ko'lamli faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz ziyorat turizmi uchun qulay maskan hisoblanadi. Xususan, yurtimizda yashab ijod qilgan islom olamida mashhur ko'plab ulamolar nomi bilan bog'liq ziyoratgohlar, shuningdek, boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar uchun ham aziz bo'lgan tarixiy qadamjolar mavjud. Islom dunyosining eng qimmatbaho Qur'oni karim qo'lyozma namunalaridan biri – Xalifa Usmon Musxafi saqlanuvchi Hazrati Imom majmuasi, buyuk islom imomi Muhammad Al-Buxoriy maqbarasi, Naqshbandiya tariqati izdoshlari maqbaralari va shu kabi ko'plab boshqa diniy markazlar ziyorat maqsadidagi sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bunday turistik salohiyat O'zbekistonga sayyohlik ko'lami va tarixiy qadamjolari ko'pligi bo'yicha dunyoning 10 ta yetakchi mamlakatlari qatorida turish imkoniyatini bermoqda.

Shuningdek, O'zbekistondagi turistlarni faol o'ziga jalb qilib kelayotgan madaniy meros obyektlarining 200 dan ortig'i YUNESKO ro'yxatiga kiritilganligi ham mamlakatimizning boy madaniy merosga ega ekanligidan darak beradi. Musulmon sayyohlarning alohida xususiyati shundan iboratki, ular bo'lajak sayohat, ziyorat joylarini yaxshi bilganliklari, ya'ni yetarli darajada musulmon ahli uchun zarur bo'lgan masjid, toat-ibodat uchun yaratilgan sharoit, halol taomlar mavjudligiga ishonch hosil qilgandagina safarga chiqadilar. Shunday ekan, mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun din bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar, o'ziga xos diniy qadriyatlar va an'analarning mavjudligining o'zi yetarli emas. Oldinda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina.

Ziyorat turizmini rivojlantirish bilan bog'liq mavjud kamchiliklarga mehmonxonalarning yetishmasligi, arzon va qulay infratuzilmaning to'liq shakllantirilmaganligi, erkin axborot olish va Internet tezligi hamda undan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, turmahsulotlarning sifati pastligi va jozibador emasligi tufayli sayyohlarni o'ziga yetarli darajada jalb qila olmasligi va boshqalarni kiritish mumkin. Turistlarni jalb etish uchun qulay turistik infratuzilmani yaratish, yaxshi reklama, jozibadorlikni namoyish etuvchi targ'ibot ishlarini olib borish, viza rejimini yanada erkinlashtirish kerak bo'ladi.

Turistlarni jalb etishning eng asosiy omillaridan biri bu – tarixiy obidalarini asli holicha saqlash. Yevropalik sayyohlar ham, musulmon davlatlari turistlari ham zamonaviy osmono'par binolarga to'la mamlakatlardan kelishadi. O'zbekistonning o'ziga xos jihati tarixiy obidalar

o'zining go'zal, qadimiy ko'rinishini saqlab qolganligidir. Tarixiy yodgorliklar tig'iz joylashgan qadimiy shaharlarimizda obidalaridagi yozuvlar katta ma'no-mazmunga egadir. Bu binolarning uzoq o'tmishga ega ekanligi, qanday qurulish uslublarida bunyod etilganligi hamda obidalaridagi naqshlarning uslublari va bu naqshlar orqali qanday ma'no-mazmun yashiringanligi haqida chet tillaridagi tarjima bukletlarini tayyorlash sayyohlarni yanada ko'proq qiziqish bilan O'zbekistonga jalb qilishga sabab bo'ladi.

2022-yilda O'zbekistonning xalqaro ziyorat turizmi reytingi "Global Muslim Travel Index"dagi mavqei 7 ta punktga ko'tarilib, mamlakatimiz 9-o'rinni egalladi. Shuningdek, turizm xavfsizligi va qulayligi darajasiga ko'ra 8-o'rinni egallab, Islom Hamkorlik Tashkilotiga a'zo mamlakatlari ichida birinchi o'ntalikka kirdi.

Sohani kordinatsiya qiluvchi tashkilot – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan "Crescent Rating" agentligining mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha bergan taklif va tavsiyalari asosida infratuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish davom etmoqda. Xususan, xalqaro aeroportlar va mehmonxonalarda ibodat amallarini bajarish uchun zarur sharoit yaratish, masjidlar yaqinidagi yo'llarga yo'l ko'rsatkichlari o'rnatish, ziyorat obyektlariga boradigan yo'llar va infraturizlmalarni yaxshilash amalga oshirilmoqda. Ziyorat turizmi sohasidagi yana bir muhim voqea 2019-yildan boshlab yurtimizda "Halol" standarti amaliyotga joriy etilishi bo'ldi [3]. Shuningdek, 2019-yilda

O'zbekiston ushbu reytingda yuqori pog'onalarga ko'tarilib, 140 mamlakat orasida 22-o'rinni egallagan edi [4].

Bundan tashqari, "Ramazonni O'zbekistonda nishonlashning 7 sababi" nomli reklama kampaniyasi tashkil etilishi hamda respublika bo'ylab masjidlar joylashuvini ko'rsatuvchi "Masjid Finder Uzbekistan" nomli mobil ilovasi ishga tushirilishi ham ziyorat turizmi rivojlanishining ijobiy tendensiyalaridan hisoblanadi. 2020-yilda Buxoro shahrining "Islom olami madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinganligini alohida e'tirof etish joiz [5].

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 9-fevral PF-6165-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi"ni tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 20-may 282-son qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2022-yildan boshlab har yilning noyabr oyi birinchi haftasida an'anaviy tarzda "Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi"ni tashkil etish belgilab qo'yildi. Bu haftalik doirasida respublika miqyosida bir qancha xalqaro darajadagi tadbirlar amalga oshirilib, ular orqali mamlakatimizdagi mavjud ziyorat turizmi salohiyatidan yanada unumli foydalanish, O'zbekiston zaminini dunyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida namoyon qilish, jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarning yuqori e'tiroflariga sazovor bo'lish, shuningdek, ziyorat turizmi xizmatlarini diversifikatsiya qilish va turizm eksportini oshirishga erishish maqsad qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmon
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 20-maydagi “Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi”ni tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 282-son qarori
3. The Establishment of Prayer Rooms for Muslim Visitors in Uzbekistan .
<http://uza.uz/oz/tourism/zbekistonda-ziyerat-turizmi-2018-yilga-nazar-27-12-2018>
4. <https://review.uz/oz/post/turizm-soasini-rivozlantiris-bujica-2019-yilda-amalga-oshirilgan-ishlar>
5. <https://uzbektourism.uz/cyrl/newnews/view?id=992>
6. <https://madaniyat.uz/uz/post/1208>
7. <https://uzreport.news/society/zbekistonda-tabarruk-ziyosat-turizm-platformasi-ishga-tushirildi>